e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/300bzb78

SHIMOLI-G‘ARBIY TOXARISTONNING ILK O‘RTA ASRLAR ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINI GIS TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KARTOGRAFIK TAHLIL QILISH

Xoliyorov Toshturdi Ramazon o‘g‘li
Termiz davlat universiteti, tayanch doktorant.
e-mail: xoliyorovtoshturdi2001@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0006-8265-4017

Annotatsiya.
Maqolada Shimoli-g‘arbiy Toxariston hududidagi ilk o‘rta asrlarga oid arxeologik yodgorliklarning geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalari asosidagi kartografik tahlili yoritiladi. Tadqiqot davomida 50 ta arxeologik yodgorlikning geografik joylashuvi aniqlanib, ularning kartografik xaritasi va tizimlashtirilgan jadvali ishlab chiqilgan. Yodgorliklarning hududiy tarqalishi hamda makoniy xususiyatlari tahlil qilinib, olingan natijalar arxeologik obyektlarni raqamli kartografik tizimlashtirishning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan.
Kalit so‘zlar: Toxariston, Amudaryo, ilk o‘rta asrlar, kartografiya, xronologiya, Ko‘hitang.

КАРТОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ СЕВЕРО-ЗАПАДНОГО ТОХАРИСТАНА НА ОСНОВЕ ГИС-ТЕХНОЛОГИЙ

Холиёров Тоштурди Рамазон угли
Термезский государственный университет, докторант (PhD).

Аннотация.
В статье представлен картографический анализ археологических памятников раннего Средневековья Северо-Западного Тохаристана с использованием технологий географических информационных систем (ГИС). В ходе исследования определено географическое местоположение 50 археологических памятников, составлена их картографическая карта и разработана систематизированная таблица. Проведён анализ территориального распределения и пространственных особенностей памятников. Полученные результаты послужили основой для формирования научных принципов цифровой картографической систематизации археологических объектов.
Ключевые слова: Тохаристан, Амударья, раннее Средневековье, картография, хронология, Кугитанг.

CARTOGRAPHIC ANALYSIS OF EARLY MEDIEVAL ARCHAEOLOGICAL SITES IN NORTHWESTERN TOKHARISTAN USING GIS TECHNOLOGIES

Xoliyorov Toshturdi Ramazon o‘g‘li
Termez State University, PhD Student.

Abstract.
This article presents a cartographic analysis of early medieval archaeological sites in Northwestern Tokharistan using Geographic Information Systems (GIS) technologies. The study identified the geographical locations of 50 archaeological sites and developed a cartographic map and a systematized table of these sites. Their territorial distribution and spatial characteristics were analyzed. The findings contributed to establishing a scientific basis for the digital cartographic systematization of archaeological sites.
Keywords: Tokharistan, Amu Darya, Early Middle Ages, cartography, chronology, Kugitang.

Kirish. Toxariston atamasi yozma manbalarda 383-yildan boshlab mamlakat nomi sifatida tilga olingan va XIII asr boshlarigacha qo‘llanilgan. Ushbu nomning turli davrlarga oid manbalarda uchrashi mintaqaning tarixiy geografiyasini o‘rganish hamda unda kechgan siyosiy va madaniy jarayonlarni davriy jihatdan yoritish imkonini beradi [3; 225-b., 5; 22-b.].

Toxariston to‘g‘risidagi muhim ma’lumotlar Tan davrida tuzilgan «Beyshi» (386–618-yillardagi voqealarni qamrab olgan), «Suyshu» (581–618-yillardagi voqealar bayon etilgan) va «Tanshu» asarlarida, shuningdek, xitoylik sayyohlar va buddaviy rohiblar Syuan Dzan hamda Xoy Chaoning safar qaydlarida bayon etilgan. Yilnomalar va safar qaydlarini qiyosiy o‘rganish Toxaristonning hududiy chegaralari, siyosiy hayoti va madaniy aloqalari haqidagi ma’lumotlarni bir-biri bilan bog‘liq holda tahlil qilishga yordam beradi.

Yozma manbalardagi ma’lumotlarni arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslash Shimoli-g‘arbiy Toxaristonning tarixiy-madaniy landshaftini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada ilk o‘rta asrlarga oid yodgorliklarning geografik o‘rnini aniqlash, ularning daryo vodiylari, tog‘oldi va tog‘li hududlar bo‘yicha tarqalishini tahlil

qilish alohida o‘rin tutadi. Yodgorliklarning joylashuvini tabiiy-geografik sharoit bilan bog‘liq holda o‘rganish manzilgohlar qaysi hududlarda zichroq joylashganini va ularning tarqalishida qanday makoniy tafovutlar kuzatilishini aniqlash imkonini beradi.

Bugungi kunda geografik axborot tizimlari (GIS) arxeologik yodgorliklarning joylashuvini xaritada aks ettirish, ularga oid ma’lumotlarni yagona raqamli muhitda tizimlashtirish va makoniy jihatdan tahlil qilish imkonini bermoqda. GIS muhitida yodgorliklarning koordinatalari va davriy mansubligi haqidagi ma’lumotlarni gidrografiya hamda relyef qatlamlari bilan birlashtirish orqali ularning hududiy tarqalishini qiyosiy o‘rganish mumkin. Yodgorliklarni davrlar bo‘yicha alohida qatlamlarda aks ettirish esa avvalgi davrlarda shakllanib, ilk o‘rta asrlarda ham hayot davom etgan manzilgohlar bilan shu davrda vujudga kelgan manzilgohlarning joylashuvini solishtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi Shimoli-g‘arbiy Toxaristonning ilk o‘rta asrlarga oid arxeologik yodgorliklarining geografik joylashuvi va makoniy tarqalish xususiyatlarini GIS asosida aniqlash hamda ularning raqamli xaritasini yaratishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun yodgorliklarga oid mavjud ma’lumotlarni tizimlashtirish, ularni geografik koordinatalari va xronologik mansubligi asosida xaritaga tushirish hamda turli tabiiy-geografik hududlardagi tarqalishini qiyosiy tahlil qilish nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA


Shimoli-g‘arbiy Toxaristonning tarixiy geografiyasi, arxeologik yodgorliklari va moddiy madaniyatini o‘rganish mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, G. A. Pugachenkova, E. V. Rtveladze, B. A. Litvinskiy, T. D. Annayev, V. V. Solovyov va B. G. G‘ofurov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari mintaqaning tarixiy taraqqiyoti va arxeologik merosini o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, kartografik, geografik tahlil va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Arxeologik yodgorliklarning geografik joylashuvi va hududiy tarqalishini aniqlashda GIS texnologiyalari asosiy metodologik vosita sifatida qo‘llanildi. Tadqiqot doirasida 50 ta arxeologik yodgorlik tanlab olinib, ularning geografik joylashuviga oid ma’lumotlar tizimlashtirildi. Olingan ma’lumotlar QGIS dasturiy muhiti yordamida kartografik jihatdan qayta ishlandi. Yodgorliklarning geografik koordinatalari WGS 84 koordinatalar tizimi asosida xaritaga joylashtirildi. Har bir arxeologik yodgorlik xaritada alohida tartib raqami bilan belgilandi. Xarita ma’lumotlarining izchilligini ta’minlash va yodgorlik nomlarini aniqlashtirish maqsadida maxsus kartografik jadval ishlab chiqildi.

MUHOKAMA. Ushbu manbalarga ko‘ra, Toxaristonning chegaralari shimoldan janubga — Boysuntog‘dagi «Temir darvoza»dan Hindikush tog‘lari etaklarigacha, sharqdan g‘arbga esa Pomir tog‘laridan Sosoniylar Eroni davlati chegaralarigacha cho‘zilgan bo‘lib, 3000 li (1 li – 0,2–0,5 km) masofani tashkil etgan [6; 123-b., 4; 119-b.]. Mamlakat hududining o‘rtasidan Amudaryo oqib o‘tgan va mazkur daryo hududni ikki qismga ajratib turgan. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida Toxariston hududi «o‘ng qirg‘oq Toxariston» va «chap qirg‘oq Toxariston» kabi ikki qismga ajratib yoritiladi. Arab manbalarida esa Toxariston «yuqori» va «quyi» hududlarga bo‘lib o‘rganilgan. Shimoli-g‘arbiy Toxariston hududi esa hozirgi Surxondaryo viloyatini o‘z ichiga olgan [2; 52-b.]. Respublikamizning janubi-sharqida, Surxon-Sherobod vodiysida joylashgan Surxondaryo viloyati sharqdan va shimoli-sharqdan Bobotog‘ va Hisor tog‘lari orqali Tojikiston bilan, shimoli-g‘arbda Chaqchar va Boysun tog‘lari orqali Qashqadaryo viloyati bilan, g‘arbda Ko‘hitang tog‘ining suvayirg‘ich qismi orqali Turkmaniston bilan, janubda esa Amudaryo orqali Afg‘oniston bilan chegaradosh. Mintaqaning asosiy gidrografik tarmoqlarini Surxondaryo va Sherobod daryolari tashkil etadi. Surxondaryoning uzunligi 196 km ni, Sherobod daryosiniki esa 171 km ni tashkil qiladi. Sherobod daryosi Boysun tog‘laridan boshlanadi va hozirgi kunda undan asosan sug‘orish uchun foydalaniladi [7; 17-b.].

NATIJALAR. Hozirgi kunga qadar Surxondaryo viloyati hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ilk o‘rta asrlarga oid 170 dan ortiq arxeologik yodgorlik aniqlangan. Ularning hududiy joylashuvi tahliliga ko‘ra, 100 dan ortiq yodgorlik Surxondaryoning yuqori va o‘rta oqimi hududlarida, 30 dan ortig‘i daryoning quyi oqimidagi har ikki sohil hamda Angor vohasida, 40 dan ortig‘i esa Sherobod daryosi havzasi va unga tutash Boysun–Ko‘hitang tog‘oldi hamda tog‘li hududlarida joylashgan. Yodgorliklarning eng katta qismi Surxondaryoning yuqori va o‘rta oqimida jamlangan. Shu bilan birga, ularning daryo vodiylaridan tog‘oldi va tog‘li hududlargacha tarqalishi ilk o‘rta asrlardagi manzilgohlar tizimi turli tabiiy-geografik mintaqalarni qamrab olganini ko‘rsatadi [1; 73-b.].

Yodgorliklarning xronologik tahliliga ko‘ra, ularning 60 dan ortig‘i Kushonlargacha bo‘lgan davrda va Kushonlar davrida shakllangan. Mazkur manzilgohlarda ilk o‘rta asrlarda ham hayot uzluksiz davom etgan. Yodgorliklarning 100 dan ortig‘i esa milodiy V asrdan VII asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda vujudga kelgan. Demak, bu davrda avvaldan mavjud manzilgohlarda hayot davom etishi bilan bir qatorda, yangi manzilgohlar ham shakllangan. Ilk o‘rta asrlarda vujudga kelgan manzilgohlarning son jihatidan ustunligi Surxondaryo vohasida manzilgohlar tarmog‘i kengaygani, yangi hududlarni o‘zlashtirish jarayoni jadallashgani hamda o‘troq hayot tarzi rivojlanib borganidan dalolat beradi [1; 73-b.].Mazkur arxeologik yodgorliklarning hududiy joylashuvi va geografik tarqalish xususiyatlarini yanada aniqroq yoritish maqsadida tadqiqot doirasida ularning 50 tasi tanlab olinib, kartografik jihatdan o‘rganildi. Ushbu yodgorliklarning geografik joylashuvi maxsus xaritada aks ettirilib, har bir manzilgoh xaritada alohida tartib raqami bilan belgilandi. Xarita ma’lumotlarining izchilligini ta’minlash, shuningdek, raqamlar orqali ko‘rsatilgan arxeologik yodgorliklarning nomlarini aniqlashtirish maqsadida tegishli kartografik jadval ham ishlab chiqildi. Unda xaritada belgilangan tartib raqamlariga muvofiq yodgorliklarning nomlari tizimli ravishda keltirildi.

1-ilova. Surxondaryo viloyatidagi ilk o‘rta asrlarga oid 50 ta arxeologik yodgorlikning geografik joylashuv xaritasi.



Site_ID	Nomi
1	Bolaliktepa
2	Kuyovqo'rg'on
3	Zartepa
4	Xayrabodtepa
5	Tozlartepa
6	Jovliqo'rg'on
7	Teshiktepa
8	Yumaloqtepa
9	Qo'rg'on
10	Nomsiztepa
11	Ismoiltepa
12	Oqtepa
13	Zartepa
14	Yalpoqtepa
15	Hayitobod tepaligi
16	Arpapoya
17	G'oyib ota tepaligi
18	Karvontushdi
19	Boytepa
20	Kattatepa
21	Rasultepa
22	Budrach
23	Elomontepa
24	Dunyotepa
25	Ilonsoytepa

Site_ID	Nomi
26	Kultepa
27	Nomozgohtepa II
28	Nog'oratepa
29	Xolchayontepa
30	Qorovultepa
31	Oqjartepa
32	Aynalmatepa
33	Kofirqal'a
34	Afg'ontepa
35	Beshkapa
36	Guraztepa
37	Kultepa
38	Qorayumaloqtepa
39	Teshiktepa dahmalari LII
40	Farmontepa
41	To'raxontepa
42	Qushdaratepa
43	Qo'rg'ontepa
44	Mortepa
45	Egizaktepa II
46	Ostonatepa
47	Mamashoyim tepa
48	Bektepa
49	Talitog'ora
50	Baxshitepa

1-ilovaning davomi. Arxeologik yodgorliklarning xaritadagi nomlari aks ettirilgan kartografik jadval.

№	Yodgorlik nomi	Davri	Koordinata	Plus codes	Joylashgan hududi
1	Bolaliktepa	VI-VII	37°26'19"N 67°11'19"E	C5QQ+CCX Talashkan	Angor tumani, Dehqon ittifoqi MFY
2	Kuyovqo'rg'on	V-VI	37°24'45"N 67°09'38"E	C576+27J Talashkan	Angor tumani, Zartepa MFY
3	Zartepa	Mil.avv.I-mil.VI	37°24'38"N 67°09'12"E	C563+6CV Giyambop	Angor tumani, Zartepa MFY
4	Xayrabodtepa	Mil.avv.I-mil.VI-VII	37°26'20"N 67°09'34"E	C5Q5+HQ4 Giyambop	Angor tumani, Yangi turmush MFY
5	Tozlartepa	V-VII, X-XII	37°26'53"N 67°09'22"E	C5X4+7GH Giyambop	Angor tumani, Qorabog' MFY
6	Jovliqo'rg'on	V-VII	37°24'20"N 67°10'46"E	C54H+7R7 Talashkan	Angor tumani, Tallashqon MFY
7	Teshiktepa	I-XIII	37°27'44"N 67°09'28"E	F565+W53 Kayran	Angor tumani, Qadimiy AngorMFY
8	Yumaloqtepa	VI-XVI	37°27'45"N 67°09'31"E	F575+3F2 Kayran	Angor tumani, Qadimiy AngorMFY
9	Qo'rg'on	V-VII	37°25'01"N 67°10'56"E	C58J+MQ8 Talashkan	Angor tumani Karvon MFY
10	Nomsiztepa	V-VII, X-XII	37°24'43"N 67°09'29"E	C565+Q8G Giyambop	Angor tumani, Zartepa MFY
11	Ismoiltepa	I-VIII	37°29'35"N 67°26'37"E	FCVV+6CH Ismailtepa	Jarqo'rg'on tumani, Ismoiltepa MFY
12	Oqtepa	I-VII	37°23'32"N 67°24'49"E	9CR7+VCQ Aktepa	Jarqo'rg'on tumani, Oqtepa MFY

ISSN 3060-5059 (Online)

13	Zartepa	V-VII	37°26'29"N 67°23'19"E	C9RQ+C8W Zortepa	Jarqo'rg'on tumani, Zartepa MFY
14	Yalpoqtepa	I-VIII	37°29'31"N 67°25'03"E	FCR9+Q2C Abuz	Jarqo'rg'on tumani, Soqchi MFY
15	Hayitobod tepaligi	IV-XII	37°33'51"N 67°26'50"E	HC7W+MV9 Karakursak	Jarqo'rg'on tumani, Xayitobod MFY
16	Arpapoya	I-V	37°43'06"N 67°31'14"E	PG9C+969 Surkhany	Jarqo'rg'on tumani, Porloq YulduzMFY
17	G'oyib ota tepaligi	V-VIII	37°47'08"N 67°32'36"E	QGPV+68G Navbakhor	Jarqo'rg'on tumani, Maslaxattepa MFY
18	Karvontushdi	I-VI	37°40'31"N 67°30'01"E	MGG2+545 Yangi-Kishlak	Jarqo'rg'on tumani, Boymoqli MFY
19	Boytepa	I-VIII	37°36'32"N 67°26'08"E	JC5P+J55 Buyrabab	Jarqo'rg'on tumani, Eski qishloq MFY
20	Kattatepa	I-IV	37°32'32"N 67°28'06"E	GFR9+V8P Karakursak	Jarqo'rg'on tumani, Yoshlik MFY
21	Rasultepa	I-IV	37°36'07"N 67°26'17"E	JC2Q+V76 Buyrabab	Jarqo'rg'on tumani, Eski qishloq MFY
22	Budrach (Jumatepa)	V-XVI	38°19'56"N 67°55'12"E	8WJC+V2J Schurtschi	Denov tumani, Lag'monota MFY
23	Elomontepa	I-V	38°14'06"N 67°52'45"E	6VPH+2M3 Denau	Denov tumani, Qo'zichog'li MFY
24	Dunyotepa	O'rta asrlar	38°09'58"N 67°52'41"E	5V8H+C8W Khayrabad	Denov tumani, Dunyotepa MFY
25	Ilonsoytepa	V-VII	38°19'49"N 67°49'28"E	8RJF+4V9 Akbarsay	Denov tumani, Buyuk Ipak Yo'li MFY
26	Kultepa	V-VII	38°19'14"N 67°57'02"E	8XC2+66F Denau	Denov tumani, Yangi kuch MFY
27	Nomozgohtepa II	V-VIII	38°12'15"N 67°54'43"E	6W36+HM3 Ishakuldy	Denov tumani, Nomozgoh MFY
28	Nog'oratepa	VIII-IX	38°19'20"N 67°47'38"E	8QCV+VHJ Akbarsay	Denov tumani, Daxana MFY
29	Xolchayontepa	I-IV	38°18'00"N 67°59'19"E	8X2Q+2C5 Serkharakat	Denov tumani, Obodturmush MFY
30	Qorovultepa	I-XIII	38°17'59"N 67°52'17"E	7VXC+VMM Denau	Denov tumani, Qoraxon MFY
31	Oqjartepa	V-VII	38°20'14"N 67°48'25"E	8RP4+VVQ Aklar	Denov tumani, Cho'ntosh MFY
32	Aynalmatepa (Alptepa)	VII-IX	38°19'33"N 67°58'00"E	8XG8+8MM Gulistan	Denov tumani, Muqimiy MFY
33	Kofirqal'a (Novandak)	V-XVII	38°22'39"N 68°02'33"E	92GV+X2R Yangikuch	Uzun tumani, Beshkapa MFY
34	Afg'ontepa	VI-VIII	38°19'51"N 68°00'30"E	82J5+CC9 Beshkapa	Uzun tumani, Mehnat MFY
35	Beshkapa (Mozortepa)	I-VII	38°20'53"N 68°01'08"E	82X9+6J9 Beshkapa	Uzun tumani, Yangiro'zg'or MFY
36	Guraztepa	O'rta asrlar	38°22'41"N 67°59'22"E	9XHQ+7R4 Sariasiya	Uzun tumani, Malandiyon MFY
37	Kultepa	O'rta asrlar	38°22'41"N 68°02'44"E	92HW+864 Khatub	Uzun tumani, Yangi kuch MFY
38	Qorayumaloqtepa (Qoraunqir)	O'rta asrlar	38°05'17"N 68°20'21"E	38QQ+5QW Shar-Shar	Uzun tumani, Oq masjid MFY

ISSN 3060-5059 (Online)

39	Teshiktepa dahmalari I,II	VI-VII	38°22'12"N 68°07'15"E	94CC+299 Chakar	Uzun tumani, Beshkapa MFY
40	Farmontepa	VII	38°15'55"N 67°59'17"E	7X8Q+576 Zhdanova	Uzun tumani, Mustaqillik MFY
41	To'raxontepa	V-VIII	38°26'41"N 67°54'46"E	CWV7+V4W Sariasiya	Sariosiyo tumani, Shabnam MFY
42	Qushdaratepa	V-VII	38°29'04"N 67°51'13"E	FVM3+PGQ Sariasiya	Sariosiyo tumani, Sebzor MFY
43	Qo'rg'ontepa	V-VIII	38°24'44"N 67°57'52"E	CX67+XRJ Sariasiya	Sariosiyo tumani, Billur MFY
44	Mortepa	V-VII	38°27'26"N 68°00'46"E	F247+V5Q Shargun	Sariosiyo tumani, Buyrapusht MFY
45	Egizaktepa II	IV-V	38°31'36"N 68°02'22"E	G2GQ+PV2 Dainabad	Sariosiyo tumani, Sarijar MFY
46	Ostonatepa	V-VII	38°27'29"N 68°00'21"E	F254+799 Shargun	Sariosiyo tumani, Buyrapusht MFY
47	Mamashoyim tepa	O'rta asrlar	38°24'51"N 67°58'16"E	CX7C+QG2 Sariasiya	Sariosiyo tumani, Mexr-shafqat qishlog'i
48	Bektepa	VI-VIII	37°51'03"N 67°21'47"E	V927+C78 Bandy-Khan	Bandixon tumani, Oybek MFY
49	Talitog'ora	Er.avv.VI-V,err.VII	37°18'58"N 67°22'53"E	898J+8MM Babamurk-Sarmez	Termiz tumani, Guliston MFY
50	Baxshitepa	V-VII	38°04'07"N 67°45'23"E	3Q95+FH Oltin kuprik, Bakhchi, Surxondaryo Viloyati	Sho'rchi tumani Baxshitepa MFY

Tayyorlangan xarita va unga muvofiq tuzilgan kartografik jadval maqolaning 1-ilovasida ketma-ketlik asosida taqdim etilgan (1-ilovaga qarang).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mazkur kartografik tadqiqotlar Surxondaryo vohasidagi ilk o'rta asrlar yodgorliklarining hududiy tarqalishi va geografik joylashuv xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot doirasida tanlab olingan 50 ta arxeologik yodgorlikning geografik joylashuvi GIS texnologiyalari asosida kartografik jihatdan tizimlashtirildi. Natijada yodgorliklarning joylashuvini aks ettiruvchi maxsus xarita va unga muvofiq kartografik jadval ishlab chiqildi.Olingan natijalar Shimoli-g'arbiy Toxaristonning ilk o'rta asrlar arxeologik yodgorliklarini raqamli kartografik tizimlashtirish, ularning hududiy tarqalishini o'rganish va kelgusidagi arxeologik tadqiqotlarda GIS texnologiyalaridan foydalanish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аннаев Т. Д. Раннесредневековые поселения Северного Тохаристана. – Ташкент: Фан, 1988. – URL: https://www.finna.fi/Record/fikka.880483.
2. Ал-Балазури. Завоевание Хорасана: извлечение из сочинения «Футух ал-Булдан» / перевод с арабского, предисловие, комментарии и указатели Г. Гоибова. – Душанбе: Дониш, 1987. – URL: https://archive.nyu.edu/handle/2451/42432. archive.nyu.edu
3. Гафуров Б. Г. Таджики: древнейшая, древняя и средневековая история. – Москва: Наука, **1972**. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01006740391. Search RSL
4. Литвинский Б. А., Соловьёв В. С. Средневековая культура Тохаристана: в свете раскопок в Вахшской долине. – Москва: Наука, 1985. – **263 с.** – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01001262445. Search RSL
5. Müller F. W. K. Toχrï und Kuišan (Küšän) // Sitzungsberichte der Königlich Preussischen Akademie der Wissenschaften. – Berlin, 1918. – № 28. – URL (bibliografik katalog): https://ge.nii.ac.jp/author/DA11274052. Müller, F. W. K.
6. Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Северная Бактрия–Тохаристан: очерки истории и культуры. Древность и средневековье. – Ташкент: Фан, 1990. – 220 с. – URL: https://archive.nyu.edu/handle/2451/43430. archive.nyu.edu
7. Эргашев Ш. Ландшафты Сурхандарьинской области**.** – Ташкент: Фан, 1974. – URL (katalog): https://akbt.samvmitf.uz/uz/unilibrary?page=587&resource_type_id=9.